

## MILLIY CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNI TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI

*Qahramonova Klara Fazliddin qizi,  
BuxDU 12-1 cholg'u-25 guruh talabasi,  
Karimov Olimxo'ja Islomovich,  
BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedراسi dotsenti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada milliy cholg'u sozlarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, milliy cholg'ularni o'rganish jarayoni yoshlarning ijodiy fikrlashi, musiqiy qobiliyati va madaniy merosga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishdagi muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** milliy, cholg'u, tarbiya, qadriyat, ta'lim, an'ana, musiqa, fikrlash, meros, madaniyat, tanbur, rubob, dutor.

**Аннотация:** В данной статье освещаются роль и значение национальных музыкальных инструментов в воспитании молодежи. Также процесс изучения национальных инструментов рассматривается как важный фактор в развитии творческого мышления, музыкальных способностей и интереса к культурному наследию у молодежи.

**Ключевые слова:** национальный, музыкальный инструмент, воспитание, ценность, образование, традиция, музыка, мышление, наследие, культура, танбур, рубоб, дутар.

**Annotation:** This article highlights the role and significance of national musical instruments in the upbringing of youth. It also considers the process of learning national instruments as an important factor in the development of creative thinking, musical abilities, and interest in cultural heritage among young people.

**Keywords:** national, musical instrument, upbringing, value, education, tradition, music, thinking, heritage, culture, tanbur, rubab, dutar.

Musiqaning tarbiyaviy roli va uning ahamiyati haqida ko'pgina tadqiqotchilar pedagogu - sozandalar munosabat bildirganlar. Darhaqiqat, musiqa insonning dunyoga kelishidan boshlab, umrining oxirigacha, ya'ni butun hayoti davomida unga hamroh bo'lib, uning tashvishu - quvonchlariga sherik bo'lib yashaydi. U insonning kayfiyatini ko'tarishda, uning turli orzu-umidlarini amalga oshirishga undaydigan muhim vosita hisoblanadi. Ana shu musiqani hosil qiladigan cholg'u asboblari ham aynan shunday kuch-quvvatga ega.

Xususan milliy musiqamizning ta'sir kuchini oshirishda tanbur va dutor hamda kamonli sozlarning o'rni alohidadir. Ushbu sozlarning ijrosida eng avvalo lirik xususiyati mavjud. Tanburning yakka zarb va pirrang zarb usulidagi ijrosi, dutorning

o'ziga xos mayin va bo'g'iqroq yoqimli sadosi, qolaversa sato, g'ijjak cholg'ularining kamon nolishidan hosil bo'ladigan lirik tovush inson ruhiga ham orombaxshlik ham hayajonlilik, shuningdek so'lim va anduhli kayfiyat baxsh etadi. Mazkur sozlar ko'p holda konsertlar, to'y-hashamlar va ommaviy tadbirlarni o'tkazishda keng ishtirok etadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, maktab o'quvchilarini estetik - ma'naviy va axloqiy ruhda tarbiyalashda ham yuqorida nomlari keltirilgan sozlarning roli cheksizdir. Ushbu sozlar jo'rligida musiqa darsini o'tish jarayonida o'quvchilar dastlab mazkur cholg'ularning tashqi ko'rinishi, uning tuzilishi va ovoz xususiyatlari bilan oshno bo'ladilar. Bu esa ularda milliy sozlarimiz haqida ma'lum tushunchani hosil qilib, ularning bilim doiralari hamda dunyoqarashlarini kengaytiradi.

Mazkur sozlardan "tanburchilar", "dutorchilar" va "g'ijjakchilar" ansamblini maktab qoshida tashkil etib, bunga o'quvchilarning ma'lum qismi jalb etilsa, bu ishtirokchilarda jamoa bo'lib bir musiqiy asarni ijro etganda, ularda do'stlik, hamkorlik, bir-biriga mehribonlik tuyg'ulari shakllanadi va rivojlanadi. Bundan tashqari ansamblda ishtirok etadigan o'quvchilarda bo'sh vaqtlar kamroq bo'lib, ular ko'cha-kuyda bekorchi bolalarga qo'shib yurishga vaqt topa olmaydilar. Musiqa bilan shug'ullangan yoshlarning qalblari pok, niyatlari musaffo bo'ladi.

Tanbur, rubob, dutor va kamonli sozlarni jamoa bo'lib chalish jarayonida ansambl rahbari ishtirokchilarga milliy cholg'ularimiz tarixi, ushbu sozlarning atoqli ijrochilari va musiqaning janr xususiyatlari borasida suhbatlar o'tkazadi. Bu esa, ishtirokchilarga milliy merosimizga bo'lgan munosabatlarini yanada kuchaytiradi.

Demak, milliy sozlarimizni barchasi qatori tanbur, rubob, dutor va kamonli sozlarning ham yoshlar tarbiyasidagi roli kattadir. Buning uchun maktabda musiqa o'qituvchisi bo'lib ishlaydigan murabbiyning kasb tayyorgarligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa muallimi dastlab musiqiy-nazariy va amaliy bilimni chuqur egallashi lozim. Bundan tashqari, u cholg'u ijrochiligi bo'yicha ham yuksak iste'dod sohibi bo'lishi kerak. Maktab dasturidan tashqari turli janrdagi milliy va jahon xalqlari musiqasini juda mohirlik bilan ijro eta olishi talab etiladi. U nafaqat o'z fani balki, adabiyot, tasviriy san'at, pedagogika, tabiatshunoslik va psixologiya yo'nalishida ma'lum bilimga ega bo'lish lozim.

Ma'lum sozlar bo'yicha "cholg'uchilar ansambli"ni tashkil qilishda esa, o'qituvchi bir necha milliy asboblarni chalib bilishi, ushbu cholg'ularning applikatorasi va ijro imkoniyatlaridan xabardor bo'lishi kerak.

Bundan tashqari ansambl rahbari jamoaga repertuar tanlashda ishtirokchilarning ijro imkoniyatlari, texnik xususiyatlari musiqani qabul qilish iste'dodlari kabi tomonlarini hisobga olish lozim. Shuningdek, dasturni tayyorlagandan so'ng, turli darajadagi konsertlarni ham tashkil qilish qobiliyatiga ega bo'lish kerak.

Bir so'z bilan aytganda, maktab musiqa muallimi va ansambl rahbaridan yuqorida ta'kidlangan tartibda ishni tashkil qilishda katta mehnat va o'z kasbiga sadoqat talab

qilinadi. Cholg'ushunoslik fanining amaliy tomoni esa cholg'uchilar ansambli va orkestri fanlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu dars jarayonida talabalar jamoa bo'lib musiqiy asarlarni chaladilar va cholg'ushunoslik fani bo'yicha egallangan nazariy bilimlarni amalga tadbiq etadilar.

Markaziy Osiyo xalqlari orasida paydo bo'lishi tarixi, hozirgi cholg'u ijrochiligida tanbur, rubob, dutor va kamonli sozlarning atoqli ijrochilari hayoti, mazkur sozlarning musiqa darslarini o'tishdagi imkoniyatlari va ularning yoshlar tarbiyasidagi roli haqida ma'lum darajada mo'jazzgina tadqiqot ishini amalga oshirishga harakat qildik.

#### ADABIYOTLAR

1. A.Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" - ikkinchi nashri, - T./, 1993.
2. S.Do'stov, J.Yarashev "Cholg'ushunoslik" Buxoro - 2012y.
3. Karimov, O. J. I. (2021). Tanbur sozining paydo bo'lishi va milliy cholg'u ijrochiligidagi o'rni. *Scientific progress*, 1(5), 767-771.
4. Karimov, O. I., & Sattorov, H. I. (2025). THE HISTORY OF THE FORMATION OF RUBAB TYPES AND THEIR ROLE IN THE NATIONAL MUSICAL CULTURE. *AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING*, 3(11), 566-570.
5. Ходжаев, Р. Р., & Каримов, О. И. (2022). Подготовка будущих учителя музыки. Тренировка на скрипке для рефлексации мышц. *Science and Education*, 3(2), 1419-1423.
6. Каримов, О. И. (2020). Значение специфических особенностей и воспитательных возможностей узбекских народных инструментов. *Academy*, (3 (54)), 78-80.